

KEKSALIK DAVRIDAGI ERKAK VA AYOLLARDA QADRIYATLAR TIZIMINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

Kurbaniyozova Ra’no Yuldashevna-mustaqlil tadqiqotchi

Urganch davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada keksalik davridagi jins vakillarining qadriyatlar tizimidagi tafovutlar keltirildi. Bu davrdagi eng muhim xususiyatlar haqidagi fikrlar bo`lishildi. Qadriyatlar sohasi jins vakillarida qanday kechishi aniqlanib, izohlandi.

Kalit so`zlar: qadriyatlar yo‘nalishi so`rovnomasasi, kasb-hunar olami, ta’lim-tarbiya, oilaviy hayot, ijtimoiy hayot, qiziqishlar olami, oly nufuzga ega bo‘lish, yuqori moddiy ta’minot, ijodkorlik, faol ijtimoiy munosabatlar, o‘z ustida ishslash, yutuqlarga yo‘nalish, ma’naviy qoniqish, o‘zlikni saqlash

Аннотация. В статье представлены различия в системе ценностей представителей Пола в пожилом возрасте. Мнения о наиболее важных особенностях этого периода разделились. Выявлено и объяснено, как проходит сфера ценностей у представителей пола.

Ключевые слова: опросник ценностной ориентации, мир профессий, образование, семейная жизнь, социальная жизнь, мир интересов, высокий престиж, высокая материальная обеспеченность, творчество, активные социальные отношения, работа над собой, ориентация на достижения, духовное удовлетворение, самосохранение

Annotation. The article cited differences in the value system of representatives of the sex in old age. Opinions about the most important features of this period were

shared. It was clarified and explained how the field of values is experienced in representatives of the sex.

Key words: the survey of the direction of values, the world of professions, education, family life, social life, the world of interests, the acquisition of higher prestige, high material support, creativity, active social relations, work on oneself, the direction of achievements, spiritual satisfaction, self-preservation

Hayotning har bir bosqichi o‘ziga xos qadriyatlar tizimi bilan tavsiflanadi. Keksalikda insonning hayotdagi o‘rni, shaxsiy qadr-qimmati o‘rganish uchun muhim ma`lumotlar hisoblanadi. Bu yosh davrida altruizm xususiyatlari yanada kuchliroq namoyon bo‘ladi: "Men allaqachon o‘z hayotimni o‘tkazdim, bolalarim va nevaralarimga yordam berishim kerak!" kabi yo`sinda. Albatta, altruizm kerak, lekin ma'lum chegaragacha, agar uni shu harakatlari qadrlanmasa, o‘zini boshqalar uchun qurban qilgandek his qiladi. Bu yoshda o‘z-o‘zini sevishni anglash eng qiyin, lekin boshqa tomondan, buning uchun yetarli sharoitlar yaratilgan, ularning asosiysi vaqt. "Butun umrim davomida o‘zimni sevish uchun vaqtim bo‘lmadi, lekin hozir menda bor" tartibida umri davom ettirilsa hayoti mazmunli bo`ladi. Shuning uchun keksalar birinchi navbatda o‘zlariga g‘amxo‘rlik qilishi kerak.

— Hayotning ushbu bosqichida, qoida tariqasida, ko‘pincha o‘limga yaqinlashish qo‘rquvi tufayli kuchaygan dindorlik paydo bo‘ladi. Va odamlar ko‘pincha fanatik e’tiqodga kirishadilar. Shunday qilib, uning qiymati yanada kamayishi mumkin. Bu hayotdagi hamma narsa kabi dindorlik ham insonni yuksaltirishi va tushirishi mumkin: hamma narsa unga bog’liq. Hamma narsa o‘ziga xizmat qilishga, o‘z qadr-qimmatini oshirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bu bosqichida o‘zining qadr-qimmatini anglash ayniqsa muhim va qiyin bo‘ladi, chunki sizning atrofingizdagি

dunyo bunga hissa qo'shmaydi, aksincha, xalaqit beradi. Zamonaviy jamiyat yoshlarga sig'inadi va keksalikni inkor etadi. Nafaqa yoshidagi odam jamiyatda ikkinchi darajali fuqaroga aylanadi, unga yaqinlari ham, davlat ham ko'pincha yuk sifatida qaraydi. Bir necha yillar davomida bir guruh olimlar taktil aloqalar (jismoniy tanaga tegish) masalasini o'rganishdi. Tajriba davomida 450 nafar keksa odamlarning hayoti kuzatildi va quyidagi natijalar ma'lum bo'ldi. Mehr va ezgu so'zni ayamaydiganlar, ijobiy his-tuyg'ularini tiyadiganlardan farqli o'laroq, umrini 20-30 yilga uzaytira olishar ekan. Bu davrning eng muhim vazifalaridan biri - donolikka, oilaning birlashtiruvchi kuchiga aylanishdir. Biz ham o'z tadqiqotimizda keksalik davridagi ayol va erkaklarda qadriyatlar tizimini o'rganib, ularning rivojlanib borishini aniqladik.

Mazkur tadqiqot ishida 32 nafar sinaluvchi ishtirok etib, ulardan 26 nafari ayollar guruhi, 6 nafari erkak guruh obyektlaridir. Quyida taqdidot natijalari keltirib o'tildi.

“Qadriyatlar yo'nalishlari so'rovnomasasi” natijalar tahlili Mann Uitni mezoni bo'yicha keltirib o'tildi (n=32).

Shkalalar	Jinsi	N	O'rtacha qiymat	Ranglar summasi	U	p
Kasb-hunar olami	Erkaklarda	6	22,08	132,50	44,500	,107
	Ayollarda	26	15,21	395,50		
	Jami	32				
Ta'lim-tarbiya	Erkaklarda	6	23,67	142,00	35,000	,038*
	Ayollarda	26	14,85	386,00		
	Jami	32				
Oilaviy hayot	Erkaklarda	6	12,42	74,50	53,500	,244
	Ayollarda	26	17,44	453,50		
	Jami	32				
Ijtimoiy hayot	Erkaklarda	6	20,50	123,00	54,000	,264
	Ayollarda	26	15,58	405,00		
	Jami	32				

Qiziqishlar olami	Erkaklarda	6	24,08	144,50	32,500	,025*
	Ayollarda	26	14,75	383,50		
	Jami	32				
Oliy nufuzga ega bo‘lish	Erkaklarda	6	19,75	118,50	58,500	,356
	Ayollarda	26	15,75	409,50		
	Jami	32				
Yuqori moddiy ta’milot	Erkaklarda	6	22,67	136,00	41,000	,078
	Ayollarda	26	15,08	392,00		
	Jami	32				
Ijodkorlik	Erkaklarda	6	24,17	145,00	32,000	,025*
	Ayollarda	26	14,73	383,00		
	Jami	32				
Faol ijtimoiy munosabatlar	Erkaklarda	6	26,08	156,50	20,500	,003***
	Ayollarda	26	14,29	371,50		
	Jami	32				
O‘z ustida ishslash	Erkaklarda	6	24,17	145,00	32,000	,025*
	Ayollarda	26	14,73	383,00		
	Jami	32				
Yutuqlarga yo‘nalish	Erkaklarda	6	18,42	110,50	66,500	,588
	Ayollarda	26	16,06	417,50		
	Jami	32				
Ma’naviy qoniqish	Erkaklarda	6	21,50	129,00	48,000	,158
	Ayollarda	26	15,35	399,00		
	Jami	32				
O‘zlikni saqlash	Erkaklarda	6	16,42	98,50	77,500	,981
	Ayollarda	26	16,52	429,50		
	Jami	32				


Izoh: *** - p<0,001; * - p<0,05

Research Science and Innovation House



"Qadriyatlar yo'nalishlari so'rovnomasasi" natijalar tahlili

■ Ayollarda ■ Erkaklarda



Senin “Qadriyatlar yo'nalishlari so'rovnomasasi” metodikasi natijalar tahliliga ko'ra **kasb-hunar olami** shkalasi bo'yicha keksalik yosh davridagi erkaklar va ayollar orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi ($U=44,500$; $p>0,05$). Ushbu tahlilga ko'ra keksalik davrida kasb-hunar sohasi har ikkala jins vakillarida bir xil rivojlangan bo`lishi mumkin.

Ta'lim-tarbiya shkalasi bo'yicha keksalik yosh davridagi erkaklar va ayollar orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatildi. Ya`ni ta`lim –tarbiya sohasi keksalik davrida ham uzlusiz davom etadi va bu erkaklarda ayollarga nisbatan ta`lim-tarbiya sohasi muhimroq qadriyat ekanligi aniqlandi. ($U=35,000$; $p<0,05$).

Oilaviy hayot shkalasi bo'yicha keksalik davrida erkaklar va ayollar orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi. Ya`ni ikkala jins vakillari uchun oila muhim qadriyat sifatida qaralmoqda. ($U=53,500$; $p>0,05$).

Ijtimoiy hayot shkalasi bo'yicha keksalik davrida erkaklar va ayollar orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi. ($U=54,000$; $p<0,05$). Ya`ni har ikkala jins vakillari uchun jamiyatda bo`layotgan hodisalar muhim hisoblanishi mumkin.

Qiziqishlar olami shkalasi bo'yicha keksalik yosh davridagi erkaklar va ayollar orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatildi. ($U=32,500$; $p<0,05$). Ushbu shkala bo'yicha keksa yoshdagi erkak va ayollarning qiziqishlar sohasi turlichaligi kuzatildi.

Oliy nufuzga ega bo‘lish shkalasi bo`yicha keksalik davrida erkaklar va ayollar orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi. .(U=58,500; p>0,05).

Yuqori moddiy ta’midot shkalasi bo`yicha keksalik davrida erkaklar va ayollar orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi. .(U=41,000; p>0,05).

Ijodkorlik shkalasi bo`yicha keksalik yosh davridagi erkaklar va ayollar orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatildi.(U=32,000; p<0,05). Ya`ni erkaklar ayollarga nisbatan bir xil hayot tarzidan zerikishadi.Ular hayotida turli yangiliklar,o`zgarishlar tarfdori ekanlar.

Faol ijtimoiy munosabatlar shkalasi bo`yicha keksalik yosh davridagi erkaklar va ayollar orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatildi. .(U=20,500; p<0,001). Ushbu shkala bo`yicha erkaklarda ayollarga nisbatan hamkorlik,do`stona munosabatlar muhimroq hisoblanishi mumkin ekan.

O‘z ustida ishslash shkalasi bo`yicha keksalik yosh davridagi erkaklar va ayollar orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatildi.(U=32,000 ; p<0,05).

Yutuqlarga yo‘nalish shkalasi bo`yicha keksalik davrida erkaklar va ayollar orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi. .(U=66,500; p>0,05). Ushbu shkala bo`yicha har ikkala jins vakillariga kasbiy faoliyatlarida aniq va sezilarli natijalarga, yutuqlarga ega bo‘lishga intilish va ko‘p hollarda o‘ziga ortiqcha baho berish xislati xos.Bu yo‘nalish bo`yicha yuqori ko‘rsatgichga ega bo‘lgan kishiga o‘zi bajargan ish jarayonidan emas, balki uning natijasidan qoniqishga moyillik xos fazilatlardandir. Shu bilan birga o‘z ishlarining oqibatini aniq rejalashtirish ham xarakterlidir.

Ma’naviy qoniqish shkalasi bo`yicha keksalik davrida erkaklar va ayollar orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi .(U=48,000; p>0,05).Erkaklarda ham ayollarda ham hayotlaridagi natijalar emas,shu jarayonlardan mazmunan qoniqish bir xil darajada rivojlangan bo`lishi mumkin.

O‘zlikni saqlash shkalasi bo`yicha keksalik davrida erkaklar va ayollar orasida ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatilmadi. (U=77,500; p>0,05).Har ikkala jins vakillari Mehnat faoliyatida o‘ziga xos usuldan foydalanib, boshqalardan qanday bo‘lmisin farq qilishga intilishlarida o‘z aksini topadi. Bu yo‘nalish bo`yicha kishilar

o‘zlariga xosligini, betakrorligini chertib ko‘rsatish uchun noan’anaviy, noyob va nodir mutaxassisliklarni tanlashga teng ravishda moyil bo‘ladilar.

Xulosa sifatida, ushbu tadqiqot natijalariga ko`ra, keksalik yosh davrida o`z ustida ishslash, faol ijtimoiy munosabatlari, ta`lim tarbiya, qiziqishlar olami, ijodkorlik kabi sohalar ikkala jins vakillarida ikki xil tarzda shakklanganligini kuzatishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bubnova S.S. Shaxsning qadriyat yo‘nalishlarining individual tuzilishi diagnostikasi // Psixologik diagnostika usullari / Ed. V. N. Drujinin. M., 1991. –3.
2. Краснорядцева О.М., Ваулина Т.А. Ценностная обусловленность типологических особенностей профессионального мышления психологов// Ценностные основания психологической науки и психология ценностей/ Отв. ред. В.В. Знаков, Г.В. Залевский. М.: Институт психологии РАН, 2008
- 3 . Rokeach M. The Nature of Human Values. N.Y.: The Free Press, 1973.
4. Яницкий М.С. Ценностные ориентации личности как динамическая система. Кемерово: Кузбассвязиздат, 2000
5. Ismoilova Asilpashsha Rojabovna. (2023). Ta`lim jarayonida o’smirlar tafakkurining rivojlanish xususiyatlari. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1(2), 36–41. Retrieved from <https://universalpublishings.com/index.php/jsiru/article/view/1165>

Research Science and Innovation House